



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'afvor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

**Umarxonova Dildora Sharipxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

**Mexmonov Kambariddin Miradxamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


<b>1. Чориева Хуршидабону Хуррам кизи</b> ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР, ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ВА ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШ.....	5
<b>2. Ражабова Хулкар Тошмановна</b> ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	14
<b>3. Ruzinazarov Shuxrat Nuraliyevich</b> RAQAMLI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALAR.....	22
<b>4. Саидова Нигорахон Акмал кизи</b> ПРАВОВАЯ КВАЛИФИКАЦИЯ ОПЕРАТОРОВ ОНЛАЙН-МАРКЕТПЛЕЙСОВ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ДОКТРИНАЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ.....	35
<b>5. Шамшетов Шарафатдин Сарсенович</b> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ СТАТУС ЗАЕМЩИКОВ В МИКРОКРЕДИТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.....	46
<b>6. Ibragimova Rayxon Shodmon qizi</b> FUQAROLIK SUD ISH YURITUVIDA TARJIMON ISHTIROKINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	55
<b>7. Adembayev Aralbay Kuralbayevich</b> TRANSPORT VOSITALARI HARAКATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISHNI KVALIFIKATSIYA QILISH.....	62
<b>8. Акбутаев Ойбек Бакирович</b> ДАСТЛАБКИ ТЕРГОВ УМУМИЙ ШАРТЛАРИНИ ТАСНИФЛАШ МЕЗОНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....	70
<b>9. Лутфуллаева Мадинабону Жамшидхон кизи</b> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ГАРАНТИИ ПРАВ ПОДОЗРЕВАЕМОГО ПРИ ЗАДЕРЖАНИИ.....	79
<b>10. Yadgarov Shohruh</b> SHANXAY NAMKORLIK TASHKILOTI: XALQARO HUQUQ SUBYEKTLILIGI, HUQUQIY MAQOMI.....	86
<b>11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o'g'li</b> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHNING AHVOLI, SOHADA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR.....	92
<b>12. Primov Baxtiyor Olim o'g'li</b> SUD TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH VA UNI OLDINI OLISH MASALALARI.....	103



**Ibragimova Rayxon Shodmon qizi,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti  
E-mail: rayxonibragimova135@gmail.com

## FUQAROLIK SUD ISH YURITUVIDA TARJIMON ISHTIROKINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**For citation:** Ibragimova Raykhon Shodmonovna. SPECIFIC FEATURES OF THE PARTICIPATION OF AN INTERPRETER IN CIVIL COURT PROCEEDINGS. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20377723>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fuqarolik sud ish yurituvida tarjimon ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlari, uning protsessual maqomi hamda sudlov jarayonida adolatni ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, fuqarolik protsessida taraflarning til bilmasligi yoki sud yuritilayotgan tilni yetarli darajada tushunmasligi holatlarida tarjimon ishtirokining zarurati, uning huquq va majburiyatlari, javobgarlik masalalari hamda protsessual kafolatlari yoritib beriladi. Maqolada tarjimonning fuqarolik sud protsessidagi o‘rni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi normalari asosida tahlil qilinib, ularning mazmun-mohiyati ilmiy izohlanadi. Shuningdek, tarjimon ishtiroki orqali taraflarning tengligi, oshkoralik va o‘zaro tortishuvchanlik tamoyillarining ta’minlanishi masalalari ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik sud ish yurituvi, tarjimon, protsessual maqom, til huquqlari, sudlov kafolatlari, o‘zaro tortishuvchanlik tamoyili, oshkoralik, taraflarning tengligi, protsessual majburiyatlar.

**Ибрагимова Райхон Шодмоновна,**  
Докторант Ташкентского государственного юридического университета.  
E-mail: rayxonibragimova135@gmail.com

## ОСОБЕННОСТИ УЧАСТИЯ ПЕРЕВОДЧИКА В ГРАЖДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются особенности участия переводчика в гражданском судопроизводстве, его процессуальный статус и значение такого участия для обеспечения справедливости в судебном разбирательстве с научно-теоретической и практической точек зрения. В частности, рассматривается необходимость участия переводчика в случаях, когда стороны не владеют языком судебного разбирательства или недостаточно понимают его, а также права и обязанности переводчика, вопросы ответственности и процессуальные гарантии. В статье также анализируется роль переводчика в гражданском процессе на основе норм Гражданского процессуального кодекса Республики Узбекистан с научным

разъяснением их содержания и сути. Кроме того, раскрывается, как участие переводчика способствует обеспечению принципов равенства сторон, гласности и состязательности процесса.

**Ключевые слова:** гражданское судопроизводство, переводчик, процессуальный статус, языковые права, судебные гарантии, принцип состязательности, гласность, равенство сторон, процессуальные обязанности.

**Ibragimova Raykhon Shodmonovna,**  
 PhD student of Tashkent State University of Law.  
 E-mail: rayxonibragimova135@gmail.com

## SPECIFIC FEATURES OF THE PARTICIPATION OF AN INTERPRETER IN CIVIL COURT PROCEEDINGS

### ANNOTATION

This article examines the specific features of the participation of an interpreter in civil court proceedings, his or her procedural status, and the significance of such participation in ensuring justice in civil adjudication from both theoretical and practical perspectives. In particular, it analyzes the necessity of involving an interpreter in situations where the parties do not know the language of the proceedings or do not possess sufficient proficiency therein, as well as the interpreter's rights and duties, issues of legal liability, and procedural safeguards. The article further analyzes the role of the interpreter in civil proceedings on the basis of the provisions of the Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, providing a scholarly interpretation of their legal nature and content. It also reveals how the participation of an interpreter ensures the implementation of the principles of equality of the parties, openness of judicial proceedings, and adversarial procedure.

**Keywords:** civil court proceedings, interpreter, procedural status, language rights, judicial guarantees, adversarial principle, openness of judicial proceedings, equality of the parties, procedural obligations.

Fuqarolik sud ish yurituvida tarjimon ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari masalasi odil sudlovning konstitutsiyaviy tamoyillari, protsessual kafolatlar va inson huquqlarini ta'minlash mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'ladi. Sud jarayonida taraflarning tengligi, tortishuvchanlik, sudlovning ochiqligi va eng muhimi, sud himoyasidan erkin foydalanish huquqi bevosita shaxsning sud yurituvi tilini tushunishi va o'z fikrini to'liq hamda aniq bayon eta olishi bilan belgilanadi. Agar protsess ishtirokchisi sud ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada tushunmasa, u holda uning protsessual huquqlari real mazmunga ega bo'lmay qoladi. Shu nuqtai nazardan tarjimon ishtiroki fuqarolik protsessida faqat texnik yordam emas, balki konstitutsiyaviy huquqni ta'minlovchi muhim institutsional kafolat sifatida baholanishi lozim.

Fuqarolik protsessual huquq nazariyasida sud ish yuritish tiliga doir qoidalar odatda protsessual shaklning tarkibiy elementi sifatida talqin etiladi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida sud ish yuritish davlat tilida olib borilishi, zarurat tug'ilganda boshqa tillardan foydalanish mumkinligi hamda sud ish yurituvi tilini bilmaydigan shaxslarga tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi kafolatlanishi belgilangan[1]. Mazkur norma mazmunan Konstitutsiyada mustahkamlangan sud himoyasiga bo'lgan huquq, shuningdek, milliy va xalqaro huquqiy standartlar bilan uyg'unlashadi. Xususan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham sud jarayonida til masalasi alohida urg'u bilan qayd etilgan. Garchi ko'pincha jinoyat protsessiga nisbatan qo'llanilsa-da, adolatli sudlov mezonlari fuqarolik ishlariga ham tatbiq etilishi zamonaviy huquqshunoslikda keng e'tirof etilgan.

Tarjimon ishtirokining nazariy asoslarini ochishda bir qator xorijiy olimlar asarlariga murojaat qilish muhimdir. Masalan, rus protsessualist olimi M.K.Treushnikov fuqarolik protsessida taraflarning protsessual tengligi prinsipini tahlil qilar ekan, tilni bilmaslik shaxsni noqulay holatga solib qo'yishi va real tenglikni buzishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, formal tenglik bilan

kifoyalanish emas, balki real protsessual imkoniyatlar tengligini ta'minlash zarur, bu esa tarjimon institutining samarali ishlashini talab qiladi[2]. Shuningdek, V.V. Yarkov fuqarolik protsessual huquqda dispozitivlik va tortishuvchanlik tamoyillarini sharhlar ekan, taraflarning o'z huquqlarini erkin amalga oshirishi uchun ular sud jarayonini to'liq tushunishi lozimligini qayd etadi[3]. Bu esa tarjimonni sudlov mexanizmining ajralmas subyekti sifatida ko'rishga asos bo'lib xizmat qiladi.

G'arbiy Yevropa huquqshunosligida ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, nemis olimi Oskar von Bulow protsessual munosabatlarni davlat bilan shaxs o'rtasidagi huquqiy aloqa sifatida talqin qilgan bo'lsa[4], zamonaviy olimlar ushbu aloqada kommunikativ omil hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlashadi. Ingliz huquqshunosi Adrian Zuckerman fuqarolik protsessining maqsadini adolatli va samarali sudlovni ta'minlash deb belgilab, taraflarning sud jarayonini tushunishi va unda ongli ravishda ishtirok etishi zarurligini bayon etadi. Uning fikricha, til to'sig'i mavjud bo'lgan sharoitda tarjimon xizmatini taqdim etmaslik protsessual adolat tamoyiliga zid bo'ladi[5].

Tarjimonning fuqarolik protsessidagi huquqiy maqomi alohida tahlilni talab etadi. U protsess ishtirokchisi hisoblanadi, biroq taraf bo'lib emas balki u mustaqil protsessual manfaatga ega bo'lmaydi, lekin uning faoliyati protsessual harakatlarning qonuniyligi va ishonchligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarjimon protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, sud tomonidan chaqiriladi, uning shaxsiga nisbatan rad etish instituti qo'llanilishi mumkin, u ogohlantiriladi hamda noto'g'ri tarjima uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu jihatlar tarjimonni oddiy texnik xodim emas, balki protsessual tartibning subyekti sifatida ko'rsatadi.

Milliy huquqshunoslikda ham tarjimon ishtiroki masalasi turli izlanuvchilar tomonidan o'rganilgan. Masalan, D.Abdusamadov fuqarolik protsessida protsessual kafolatlar tizimini tahlil qilib, tarjimonni shaxsning sud himoyasidan foydalanish huquqini ta'minlovchi vosita sifatida e'tirof etadi. Uning ta'kidlashicha, tarjimon ishtirokisiz sud jarayonida berilgan tushuntirishlar, ko'rsatmalar va iltimosnomalar to'liq va haqqoniy aks etmasligi, bu sud qarorining qonuniyligi va asoslanganligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin[6]. Yana bir tadqiqotchi S.Yo'ldoshev sud ish yurituvida til masalasini konstitutsiyaviy prinsiplar bilan bog'lab, ko'p millatli jamiyat sharoitida tarjimon institutining dolzarbligi yanada ortishini qayd etadi[7].

Fuqarolik sud ish yurituvida tarjimon ishtirokining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, jinoyat protsessidan farqli ravishda bu yerda davlat ayblov funksiyasini amalga oshirmaydi, taraflar o'zaro tortishuv asosida dalillar keltiradi. Shu bois tarjimonning xolisligi va betarafligi ayniqsa muhimdir. Agar tarjimon taraflardan biri bilan qarindoshlik, xizmat yoki boshqa yaqin aloqada bo'lsa, bu holat protsessual tenglikka putur yetkazadi. Shuning uchun amaliyotda sudlar tarjimonning manfaatdor emasligini aniqlashga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda sudlar tarjimon xizmatiga yetarlicha e'tibor bermasligi mumkin. Masalan, tarjimonning malakasi, tilni bilish darajasi, yuridik terminologiyani to'g'ri qo'llay olishi tekshirilmaydi. Natijada protsessual hujjatlar noto'g'ri tarjima qilinishi, taraflarning pozitsiyasi buzib ko'rsatilishi yoki sud majlisi bayonnomasida xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday kamchiliklar sud qarorini apellatsiya yoki kassatsiya tartibida bekor qilish uchun asos bo'lishi ehtimoldan xoli emas, chunki protsessual normalarning buzilishi qarorning qonuniyligiga ta'sir ko'rsatadi.

Tarjimon ishtirokining yana bir o'ziga xos jihati – yozma va og'zaki tarjima o'rtasidagi farqdir. Fuqarolik ishlarida ko'plab yozma dalillar, shartnomalar, ishonchnomalar, ekspertiza xulosalari taqdim etiladi. Agar ushbu hujjatlar boshqa tilda bo'lsa, ularni rasmiy tarjima qilish talab etiladi. Bu yerda tarjimonning mas'uliyati yanada ortadi, chunki yozma tarjimada har bir atamaning aniq va to'g'ri ifodalanishi sudning dalillarni baholash jarayoniga bevosita ta'sir qiladi. Yuridik terminologiyaning noto'g'ri tarjimasi huquqiy mazmunni o'zgartirib yuborishi mumkin. Masalan, “da'vo muddati” va “kafolat muddati” tushunchalarining chalkashtirilishi moddiy huquq normalarini noto'g'ri qo'llashga olib kelishi mumkin.

Xorijiy tajribada tarjimonlar faoliyatini tartibga solishning turli modellari mavjud. Masalan, ayrim Yevropa davlatlarida sud tarjimonlari maxsus ro'yxatga olinadi, malaka imtihonlaridan o'tkaziladi va ularning kasbiy javobgarligi qat'iy belgilangan[8]. Bu tajriba milliy tizimni

takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. O'zbekiston sharoitida ham sud tarjimonlarining yagona reyestrini yuritish, ularni attestatsiyadan o'tkazish va malakasini oshirish tizimini joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Tarjimon ishtiroki bilan bog'liq yana bir muhim masala – sud xarajatlari taqsimoti. Fuqarolik protsessual qonunchilikka ko'ra, tarjimon xizmatiga to'langan haq sud xarajatlari tarkibiga kiradi va ish natijasiga qarab taraflar zimmasiga yuklatiladi. Bu norma dispozitivlik va protsessual iqtisod prinsiplari bilan uyg'unlashadi. Shu bilan birga, sud ish yurituvini bilmaydigan shaxsning moliyaviy imkoniyati cheklangan bo'lsa, tarjimon xizmatini ta'minlash davlat zimmasiga yuklatilishi masalasi inson huquqlarini ta'minlash nuqtai nazaridan muhimdir.

Ilmiy izlanish natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, fuqarolik sud ish yurituvida tarjimon ishtiroki odil sudlovning ajralmas elementi bo'lib, u protsessual tenglik, tortishuvchanlik, oshkoralik va sud himoyasiga bo'lgan huquqni real mazmun bilan to'ldiradi. Tarjimonning huquqiy maqomini aniq belgilash, uning xolisligi va malakasini ta'minlash, yozma va og'zaki tarjima sifatini nazorat qilish hamda sud amaliyotida ushbu institutga nisbatan rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaslik fuqarolik protsessining samaradorligini oshiradi. Xorijiy va milliy olimlar fikrlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tarjimon institutini rivojlantirish fuqarolik sudlovining adolatli va qonuniy bo'lishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois mazkur institutni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Fuqarolik sud ish yurituvida tarjimon ishtirokini yanada izchil tahlil qilish ushbu institutning nafaqat protsessual shakl elementi, balki huquqni amalga oshirish mexanizmidagi kommunikativ vosita ekanini anglashni talab etadi. Sud muhokamasi o'z mohiyatiga ko'ra muloqot jarayonidir: da'vogar o'z talablarini asoslaydi, javobgar e'tiroz bildiradi, uchinchi shaxslar tushuntirish beradi, guvohlar ko'rsatma beradi, ekspertlar xulosa taqdim etadi. Ushbu kommunikativ tizimning barqaror ishlashi til birligi bilan chambarchas bog'liq. Agar protsess ishtirokchisi sud ish yuritilayotgan tilni yetarli darajada bilmasa, u holda sud himoyasi formallashib qoladi. Shuning uchun tarjimon fuqarolik protsessida kommunikativ ta'minlovchi subyekt sifatida maydonga chiqadi.

Tarjimonning ishtiroki eng avvalo konstitutsiyaviy tenglik prinsipining amaliy ifodasidir. Tenglik prinsipi faqat huquq va majburiyatlarning normativ darajada bir xil belgilanishi bilan cheklanmaydi, balki ularni real amalga oshirish imkoniyatini ham o'z ichiga oladi. Huquq nazariyotchisi Hans Kelsen normativ tizimning samaradorligi uning qo'llanish mexanizmlari bilan belgilanadi[9], deb ta'kidlagan. Mazkur g'oya fuqarolik protsessiga tatbiq etilganda, sud tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar taraflarga o'z huquqlaridan foydalanish imkonini bermasa, normativ tenglik mazmunini yo'qotadi. Tarjimon aynan shu samaradorlikni ta'minlash vositasidir, chunki u til to'sig'ini bartaraf etib, protsessual imkoniyatlar tengligini real holatga aylantiradi.

Ilmiy adabiyotlarda tarjimon institutini protsessual kafolatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida ko'rish keng tarqalgan. Rossiyalik olim T.V. Saxnova fuqarolik protsessida protsessual kafolatlarni shaxsning subyektiv huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yuridik vositalar majmui sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, sud ish yuritish tilini bilmaydigan shaxsga tarjimon taqdim etilmasligi protsessual huquqlarning buzilishi sifatida baholanishi lozim[10]. Bu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, tarjimon ishtiroki sud qarorining qonuniyligi va asoslanganligiga bevosita ta'sir etadi, chunki tarafning tushuntirishlari noto'g'ri ifodalansa yoki u sud savollarini anglamasa, dalillarni baholash jarayoni ham izdan chiqadi.

Fuqarolik protsessida tarjimonning o'ziga xos jihatlaridan biri uning dalillarni tekshirish bosqichidagi rolida namoyon bo'ladi. Dalillarni bevosita va og'zaki tekshirish prinsipi sudning ishni to'liq va har tomonlama ko'rib chiqishini nazarda tutadi. Agar guvoh yoki taraf sud tilini bilmasa, uning ko'rsatmasi tarjimon orqali uzatiladi. Bu yerda tarjimon faqat so'zlarni emas, balki mazmunni, huquqiy mohiyatni, terminologiyani ham aniq yetkazishi shart. Masalan, shartnoma majburiyatining buzilishi, zarar miqdori, ayb shakli, protsessual muddat kabi tushunchalar oddiy lug'aviy tarjima bilan emas, balki yuridik ekvivalent orqali ifodalinishi kerak. Aks holda sudning ichki ishonchi noto'g'ri shakllanishi mumkin.

Tarjimonning javobgarligi masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. U noto'g'ri tarjima qilgan taqdirda, bu holat sud hujjatlarining haqiqiylikiga putur yetkazadi. Protsessual qonunchilikda tarjimonni qasddan noto'g'ri tarjima qilganlik uchun javobgarlikka tortish imkoniyati nazarda tutilgan bo'lib[11], bu norma uning xolisligi va mas'uliyatini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, amaliyotda tarjimonning kasbiy malakasini aniqlash mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Yuridik terminlarni mukammal bilmaydigan shaxsning tarjimon sifatida jalb qilinishi protsessual xatolarga sabab bo'ladi. Shu bois ilmiy doiralarda sud tarjimonlarini sertifikatlash, ularning kasbiy tayyorgarligini muntazam oshirib borish zarurligi haqida takliflar ilgari surilmoqda[12].

Yana bir muhim aspekt – tarjimonning betarafligi va mustaqilligi masalasidir. Fuqarolik protsessi dispozitiv xarakterga ega bo'lib, taraflar o'z manfaatlarini himoya qiladi. Tarjimon esa mazkur tortishuvda hech bir tomonni qo'llab-quvvatlamasligi lozim. Agar u taraflardan biriga maslahat bersa, tushuntirish mazmunini o'zgartirsa yoki muayyan ifodalarni yumshatsa, bu protsessual tenglikka putur yetkazadi. Shu sababli sud tarjimonni ogohlantirishi, uning manfaatdor emasligini aniqlashi va zarur hollarda rad etish institutini qo'llashi lozim. Bu jihat tarjimonni protsessual intizomga amal qilishi lozim bo'lgan subyektlardan biri sifatida namoyon etadi.

Tarjimon ishtiroki apellatsiya va kassatsiya instansiyalarida ham dolzarbdir. Yuqori instansiya sudi ish materiallarini qayta ko'rib chiqishda birinchi instansiyada yo'l qo'yilgan protsessual buzilishlarni aniqlaydi. Agar sud majlisida tarjimon ishtiroki ta'minlanmagan bo'lsa yoki uning tarjimasi noto'g'ri bo'lgani isbotlansa, bu holat protsessual normalarning jiddiy buzilishi sifatida baholanib, sud qarorini bekor qilishga asos bo'lishi mumkin. Demak, tarjimonning faoliyati faqat birinchi instansiya bilan cheklanmay, butun sudlov tizimining barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida tarjimon institutining yangi shakllari yuzaga kelmoqda. Masofaviy sud majlislari, videokonferensiya aloqa tizimlari orqali o'tkaziladigan muhokamalarda sinxron tarjima xizmatlari qo'llanilmoqda. Bu esa tarjimonning texnik vositalardan foydalanish ko'nikmasini ham talab etadi. Biroq avtomatlashtirilgan tarjima dasturlarini to'liq qo'llash masalasi ehtiyotkorlikni talab qiladi, chunki yuridik matnlar va og'zaki ko'rsatmalarining nozik jihatlari sun'iy intellekt tomonidan har doim ham aniq ifodalanmasligi mumkin[13]. Shu bois inson omili, ya'ni professional tarjimon ishtiroki hozircha muqobil vosita bilan to'liq almashtirilmaydi.

Masofaviy sud majlislarining joriy etilishi, ayniqsa, pandemiya davridan so'ng keng quloq yoydi. Videokonferensiya aloqa tizimlari orqali o'tkaziladigan muhokamalarda taraflar, guvohlar va ekspertlar turli hududlardan turib ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bunday sharoitda sud ish yuritish tilini bilmaydigan shaxslarning protsessual huquqlarini ta'minlash masalasi yanada murakkablashadi. An'anaviy sud zalida tarjimon og'zaki nutqni bevosita qabul qilib, uni boshqa tilga o'giradi. Masofaviy formatda esa ovoz sifati, internet tezligi, texnik uzilishlar, akustik sharoit kabi omillar tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tarjimon nafaqat lingvistik va yuridik bilimlarga, balki texnik savodxonlikka ham ega bo'lishi lozim.

Sinxron tarjima texnologiyalari sud jarayonining tezkorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Masofaviy majlislarda maxsus audio kanallar orqali bir vaqtning o'zida tarjima amalga oshirilishi mumkin. Bu esa protsessual iqtisod prinsipiga mos keladi, chunki vaqt tejaladi va majlisning uzluksizligi ta'minlanadi[14]. Biroq sinxron tarjima yuqori darajadagi professional tayyorgarlikni talab etadi. Yuridik terminologiyaning murakkabligi, protsessual hujjatlarning rasmiy uslubi va sud nutqining o'ziga xosligi tarjimondan katta e'tibor va tezkor fikrlashni talab qiladi. Fuqarolik protsessida qo'llaniladigan "da'vo predmeti", "protsessual huquqiy vorislik", "dalillarning maqbulligi", "sud xarajatlari" kabi tushunchalar noto'g'ri ifodalansa, sudning ichki ishonchi shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Raqamli muhit tarjimon faoliyatiga yangi mas'uliyat yuklaydi. Avvalo, ma'lumotlar xavfsizligi masalasi dolzarbdir. Sud muhokamasida ko'rilayotgan ishlar ko'pincha shaxsiy ma'lumotlar, tijorat sirlarini yoki boshqa maxfiy axborotni o'z ichiga oladi. Masofaviy platformalarda ishlash jarayonida ushbu ma'lumotlarning uchinchi shaxslarga oshkor bo'lish xavfi mavjud. Shu bois tarjimonlar axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilishi, maxfiylik majburiyatini

saqlashi va himoyalangan aloqa kanallaridan foydalanishi shart. Bu esa ularning protsessual majburiyatlarini yanada kengaytiradi.

Avtomatlashtirilgan tarjima dasturlarining rivojlanishi sud amaliyotida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar katta hajmdagi matnlarni tezkor tarjima qilishga qodir. Elektron hujjat aylanishida bunday vositalar yordamchi instrument sifatida qo'llanishi mumkin. Masalan, chet tilidagi shartnomani dastlabki tushunish uchun mashina tarjimasidan foydalanish qulaydir. Biroq fuqarolik protsessida dalillarni baholash jarayoni aniqlik va huquqiy ekvivalentlikni talab qiladi. Yuridik atamalar ko'pincha ko'p ma'noli yoki muayyan huquqiy tizimga xos bo'ladi. Sun'iy intellekt esa mazmunan nozikliklarni har doim ham to'liq anglay olmaydi. Natijada noto'g'ri tarjima qilingan birgina ibora sud qarorining mazmuniga ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Og'zaki ko'rsatmalarni avtomatik tarjima qilish masalasi yanada murakkabdir. Sud majlisida nutq tezligi, emotsional ohang, pauzalar, urg'ular muhim ahamiyatga ega. Guvohning ikkilanib javob berishi, tarafning qat'iy pozitsiyasi yoki noaniq izohi tarjimada o'z aksini topishi kerak. Mashina tarjimasi esa bu psixologik va semantik jihatlarni yetarli darajada uzata olmaydi. Shu bois inson omili, ya'ni professional tarjimonning intuitiv va tajribaviy yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, protsessual qonunchilik nuqtai nazaridan ham tarjimonning shaxsan ishtiroki muhimdir. Tarjimon sud tomonidan ogohlantiriladi, unga nisbatan rad etish instituti qo'llanishi mumkin, u noto'g'ri tarjima uchun javobgarlikka tortiladi. Avtomatlashtirilgan dastur esa protsessual subyekt maqomiga ega emas, unga nisbatan javobgarlik choralari qo'llash mexanizmi mavjud emas. Demak, sun'iy intellekt vositalari yordamchi bo'lishi mumkin, biroq ular protsessual javobgarlikni o'z zimmasiga ololmaydi[15].

Raqamli texnologiyalarni joriy etish tarjimonlar tayyorlash tizimini ham modernizatsiya qilishni talab etadi. Endilikda sud tarjimonlari nafaqat lingvistika va yuridik terminologiya, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, onlayn platformalar bilan ishlash, audio-video uskunalardan foydalanish bo'yicha ham malakaga ega bo'lishi zarur. Ularni sertifikatlash va sud ish yurituvini jarayonida mazkur ko'nikmalarni ham baholash maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa qilib aytganda**, fuqarolik sud ish yurituvida tarjimon ishtiroki ko'p qirrali institut bo'lib, u konstitutsiyaviy huquqlarni ta'minlash, protsessual tenglikni kafolatlash, dalillarni to'liq va xolisona tekshirish, sud qarorining qonuniyligi va asoslanganligini ta'minlash kabi vazifalarni bajaradi. Uning huquqiy maqomini aniqlashtirish, kasbiy malakasini oshirish, javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish hamda zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish fuqarolik protsessining sifat ko'rsatkichlarini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Tarjimon instituti shunchaki yordamchi vosita emas, balki odil sudlovning muhim tarkibiy elementi sifatida e'tirof etilishi zarur.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018-y. (Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. National database of legislative documents, 23.01.2018)
2. Треушников, М.К. Гражданский процесс. Москва: Городец, 2014. (Treushnikov, M.K. Civil process. Moscow: Gorodets, 2014)
3. Ярков, В.В. Гражданский процесс. Москва: Статут, 2016. (Yarkov, V.V. Civil process. Moscow: Statut, 2016)
4. Bulow, Oskar von. Gesetz und Richteramt. Leipzig: Duncker & Humblot, 1995.
5. Zuckerman, Adrian A.S. Zuckerman on Civil Procedure: Principles of Practice. London: Sweet-Maxwell, 2013.
6. Abdusamadov D. Sudlov ishlari yuritiladigan til tamoyilining konstitutsiyaviy kafolatlari. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 2(8), 28–31. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yoitj/article/view/58772> (Abdusamadov D. Constitutional guarantees of the principle of the language of judicial proceedings. Journal of academic studies of

- new Uzbekistan, 2(8), 28–31. retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/yoitj/article/view/58772>)
7. Yoʻldoshev S. Sud ishlarida tarjimon instituti: huquqiy asoslar va amaliy muammolar. — T.: “Adolat”, 2019. (Yuldoshev S. The Institute of Interpreters in Judicial Proceedings: Legal Basis and Practical Problems. — T.: “Adolat”, 2019)
  8. European Court of Human Rights. Guide on Article 6 of the European Convention on Human Rights: Right to a Fair Trial (Civil Limb). Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2022.
  9. Kelsen, Hans. Reine Rechtslehre (Sof huquq nazariyasi). Wien: Franz Deuticke, (2-nashr).
  10. Сахнова, Т.В. Гражданский процесс: теория и практика. Москва: Вольтерс Клувер, 2008. (Sakhnova, T.V. Civil procedure: theory and practice. Moscow: Walters Kluwer, 2008)
  11. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y. (Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. National database of legislative documents, Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan, 1995)
  12. Магомадова Эльза Исаевна. Проблемы привлечения переводчика в судебном производстве в России // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2019. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-privlecheniya-perevodchika-v-sudebnom-proizvodstve-v-rossii>. (Elza Isaevna Magomadova. Problemy privlecheniya perevodchika v sudbnom proizvodstve v Rossii // Humanitarnye, sotsialno-ekonomicheskie i obshchestvennye nauki. 2019. No. 5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-privlecheniya-perevodchika-v-sudebnom-proizvodstve-v-rossii>)
  13. “Ethical Charter on the Use of Artificial Intelligence in Judicial Systems” (Council of Europe, CEPEJ, 2018).
  14. Пирматов Отабек. Разрешение споров в режиме онлайн это новый этап виртуализации гражданского судопроизводства // Review of law sciences. 2020. № Спецвыпуск. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razreshenie-sporov-v-rezhime-onlayn-eto-novyy-etap-virtualizatsii-grazhdanskogo-sudoproizvodstva>. (Pirmatov Otabek. Razreshenie sporov v regime online eto novyy etap virtualizatsii grajdanskogo sudoproizvodstva // Review of law sciences. 2020. #Spetsvypusk. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razreshenie-sporov-v-rezhime-online-eto-novyy-etap-virtualizatsii-grazhdanskogo-sudoproizvodstva>)
  15. Richard Susskind. “Online Courts and the Future of Justice”, Oxford University Press, 2019.

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

### JOURNAL OF LAW RESEARCH

#### Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

#### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

#### Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.